

## YURTIMIZDA YETISHIB CHIQQAN ALLOMALAR HAYOTINI O'RGANISH

*Bannayev Abdulbori Majidxon o'g'li*

*Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti*

*4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Yurtimizning qadimiy tarixi va boy ma'daniyatiga, bu o'lkada yashab o'tgan ajdodlarimizning jahon madaniyatiga g'oyat ulkan hissalar hozirgi kunda ham turmishning barcha jabhalariga hissa qo'shmoqda. Ularni jahon madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasini atroflicha chuqur tatqiq qilish davr talabidir. Chunki jodlarimizning boy merosi va tajribasi mustaqil o'zbek davlati taraqqiyotiga mustahkam poydevor bo'lib hizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Yurtimizni boy tarixi va ma'daniyati, jahon madaniyati, ajdodlarimizning boy merosi, o'zbek davlati taraqqiyoti.

### ASOSIY QISM

Burhoniddin Marg'inoniyning asl ismi "Abul Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abdu Jalil al-Farg'oniy al-Rishdoniy al-Marg'inoniydur". Shayxning Hanafiy mazhabi yo'lida qilgan xizmatlarga hurmat yuzasidan "Burhoniddin val Milla" ya'ni "Din va millatning hujjati" deb nom berishgan.

Allomaning tavallud sanalari xususida ixtiloflar bor. Aksariyat manbalarda bu zotning tug'ilgan sanalari umuman zikr qilinmagan. Ammo Abu Tohirxo'janing "Samariya" nomli asarida alloma 515-hijriy, melodiy 1118-yilda tavallud topganlari hususida ma'lumot keltiriladi. Lekin O'zb. Res. F. A. Abu Rayxon Beruniy nomidagi "Sharqshunoslik" Instituti sharq qo'lozmalari hazinasida saqlanayotgan "al-Hidoya"ning qadimiy qo'lyozma nus'halaridan birida ham allomaning tavallud sanalari 511-hijriy deb ko'rsatilgan Demak, shayxul-islom aynan 511-hijriy, 1118-melodiy sanada hozirgi Farg'ona viloyati Rishton tumanining Dehbet qishlog'ida tavallud topgan. Boshqa bir manba esa Burhoniddin Marg'inoniy hijriy 515- yili rajab oyining 12 kuni seshanba (melodiy 1123-yil 23 -sentabr)da Farg'ona vodiysining Roshidon qishlog'ida tavallud topgan deyilgan. Yana birida Burhoniddin Marg'inoniy 515- hijriy, rajab oyining sakkizinchi kuni dushanba choshgoh paytida tavallud topganlar deyiladi.

Avval otasi Abu-Bakr ibn Abduljalil, so'ngra imom Bahouddin Ali ibn Muhammad Asbijoniy qo'lida tahsil ko'rdi. Boshqa bir asarda esa Burhoniddin Marg'inoniy dastlabki ta'limini o'z bobolari Umar ibn Habibdan olgan. U kishi o'qimishli va zamonasining ancha ilg'or kishilardan bo'lgan. Alloma o'zining ustozlari haqida "Kitob ul-mashoix" asarida ma'lumot beradi. Bevosita ta'lim bergan

ustozlari ro'yhatini boshida shayx Najmiddin Abu Hafs an-Nasafiy (1069-1143) zamonasining buyuk allomalaridan faqih, muhaddis, mufassir, arab tili gramatikasining usta bilimdoni bo'lgan.

U kishning mashhur ustozlari:

1. Abdulaziz Abdurazzoq ibn Nasr ibn Ja'far ibn Sulaymon Marg'inoniy.
2. "Fatvoi Qozixon" asarining muallifi Faxriddin Abulmahosir Hasan ibn Mansur O'zgandiy (vafoti 1196 y.)

3. "Al-Aqoid an-Nasafiya" kitobi va fiqh ilmi bo'yicha yuzga yaqin asarlar muallifi Abu Hafs Najmiddin Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy (vafoti 1143 yil). Muhammad ibn Hasan Shayboniy qalamiga mansub "Al-Jome' as-sag'ir" ni nazmga solib sharh qilgan va uni "al-Manzuma" deb nomlagan. Ushbu olimning "Kitob al-voqiot" va "kitob al-mavoqit" nomli asarlari ham ma'lum.

4. Sodrush-Shari'a Hisomuddin Umar ibn Abdulaziz ibn Umar ibn Moza (1140 y.). Abu Muhammad Xisomuddin (r.a)ning fiqhiy fatvolar asosida tuzilgan "Kitob al-mavoqiyat" asari bizgacha yetib kelgan. Kitobda har bir mavzu turli asarlardan yig'ilgan fatvo va qarashlar asosida yoritilgan.

5. Qavomuddin Ahmad ibn Abdurrashid Umar ibn Muhammad ibn Abdulloh ibn Ziyu ul-islom Abu Shujjo al-Bahomiy.

6. Ahmad ibn Abdulaziz Ziyovuddin Muhammad ibn Husayn al-Bandiyjaniy.

7. As-Saraxsiyning shogirdi bo'lmish Abu Amr Usmon ibn Ali al-Baykandiy edi.

Burhoniddin al-Marg'inoniy hazratlarining ustoz shayxlari haqida kitoblarida jami 40 dan ortiq allomalarning nomlari zikr qilinadi. Alloma bu ustozlar ayrimlaridan bevosita ta'lim olgan bo'lsalar, boshqalarning ilmiy merosidan bahramand bo'lganliklaridan ularni o'zlarining ustozlari deb ataganlar.

Kotib Chalabiy, Abul Hasan Muhammad Abdulhay Laknaviy, "Hidoya"ning ayrim sharhlovchilari, islom ensiklopediyasi ma'lumotlariga ko'ra quyidagi asarlar Burhoniddin Marg'inoniy qalamiga mansub bo'lib, tekshirishlar orqali ularning qo'l yozmalari borligi aniqlangan:

1. Nashrul mazhab.

2. Kitob Tanosikul xos (Ma'nosikul Haj).

3. Kitobul fil-Faroiz (Meros bo'yicha).

4. At-Tajnisu val maziyd (2ta fatvolar majmuasi).

5. Muxtorotun-navozil (Majmu'un-Navozil).

6. Maziydun fil Furu'-il-Hanafiya.

7. Imom ash-Shayboniyning muhum asari bo'lmish "al-Jome'ul Kabiyrning" sharhi.

8. Bidoyatul-Mubtadiy.

9. Kifoyatul-Muntaxiy (Bidoya uchun yozilgan katta sakkiz jiltlik sharh).

10. Imom Margʻinoniyning shoh asari boʻlmish al-Hidoya (Bidoyatul-Mubtadiy) uchun oʻziga yozgan sharh.

Fiqh ilmini ahamiyatini chuqur tushungan Burhoniddin al-Margʻinoniy oʻz farzandlarini ham ushbu sohada tarbiyalab kamolga etkazdi. Tarix ulamolari Burhoniddin Margʻinoniyning avlodlari haqida ham baʼzi maʼlumotlarni berganlar. Sababi, allomaning avlodlari ham ilm sohasida yuksak natijalarga erishganlar. Manbalarda allomani 3 oʻgʻlining ismlari zikr qilinadi:

1) Imoduddin Ali ibn Abu Bakr ibn Abd ul-Jalil al-Fargʻoniy al-Margʻinoniy. Fiqh ilmini oʻz otasi “sohib ul-Hidoya”dan oʻrgangan. Shuningdek, kishiga Zahiruddin al-Buxoriy ham ustozlik qilgan. “Odobul ul-Qozi” asarining muallifi.

2) Shayx ul-islom Nizomuddin Umar ibn Ali ibn Abu Bakr al-Fargʻoniy al-Margʻinoniy. Fatvo chiqaradigan darajadagi faqih olim boʻlgan. Fiqh ilmidan taʼlimini otalaridan olgan. “Javohirul-fiqh”, ”al-Favoid” va boshqa qator asarlar muallifi.

3) Jaloluddin Muhammad ibn Ali ibn Abu Bakr al-Fargʻoniy al-Margʻinoniy. Fiqh ilmidan taʼlimini otalaridan olgan, fatvo chiqarish darajasiga yetgan. Yozgan asarlari bizga maʼlum emas.

Burhoniddin Margʻinoniyning uch oʻgʻillari ham otalaridan soʻng navbatmanabat shayxulislom boʻlganlar. K. Kattayev “Samarqandlik buyuk allomalar” kitobida: “Amir Temur davrida Abdumalik, Mirzo Ulugʻbek davrida Isomiddin, Abu Said Mirzo davrida Burhoniddin va Nizomiddin Masʻud, Bobur Mirzo davrida Abdukarim shayxulislom mansabida boʻlganlar” deb yozadi.

“Al-Ajoib al-Makdur fi axbor at-Temur”asari muallifi Burhoniddin Margʻinoniyning bir necha nabiralari ham boʻlgani haqida xabar beradi. Allomaning nabiralaridan Abidul-Avval ibn Burhoniddin Ali ibn Imoduddin ibn Jaloliddin boʻlib, faqih, muhaddis, mufassir va taqvodor kishi boʻlgan. Sayyid Jaloliddin al-Kirmoniydan fiqh ilmidan taʼlim olgan.

Abdur-Rahim Abul-Fath Zayniddin ibn Imoduddin ibn Ali ibn Abu Bakr boʻlib, u Samarqandda yashab, ilmiy ishlar bilan shugʻullangan. Fiqh ilmini otasi Imoduddindan va Majiduddin al-Ustrushniyning shogirdi Isomiddin al-Ulyo Bodiyan oʻrgangan. Manbalarda yozilishicha, 1253-yil Samarkand shahrida qozilikka doir "Al-Fusulul-imodiya" nomli fiqhiy asar ham yozgan. Ayrim manbalarda bu zot Burhoniddin Margʻinoniyning ukalari boʻlgan, degan taxminlar ham uchraydi.

Burhoniddin al-Margʻinoniyning shogirdlaridan ham fiqh ilmi sohasida yuqori darajaga erishganlar. Jumladan Jaloliddin Mahmud ibn al-Husayn al-Usturshiy, Fargʻona viloyatida tavallud topganlar. Fiqh ilmida Burhoniddin al-Margʻinoniydan taʼlim olganlar. Keyinchalik oʻzi ham Shayxul islom, Jaloliddin va Burhoniddin kabir kabi sharaflil nomga muvassar boʻlgan.



Alloma umrining oxirlarida Samarqandda yashab, ijod etib, 593-hijriy (1196-1197melodiy) yili o'sha erda dunyodan o'tgan. Shomiyning "Durrul-Muxtor"da yozishicha ulug' faqih Samarqanddagi 400 ga yaqin Muhammad ismli faqihlar dafn etilgan Muhammadiylar qabristoni "Turbatul-Muhammadiyyin"da dafn etilgan ekan.

Boshqa manbada al-Marg'inoniy ko'proq muddat Samarqandda istiqomat qilgan va umrining oxirigacha o'sha yerda ijod bilan shug'ullanib, seshanba kechasi, zul-hijja oyining 14-kuni 593 hijriy yili (1196—97 m.y.) hayotdan ko'z yumgan. Yana bir manbada quyidagi fikrlarni ko'rishimiz mumkin: "Uning 76 yoshida Samarqandda vafot etgani, tarixiy manbalardan ma'lum. Bu buyuk allomaning vafoti haqida yozgan tarixchilar, bu sanani 1197-yil 29-oktabrda deb ko'rsatadilar. Dafn etilgan joyi esa, mashhur Chokardiza qabristonidadir".

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va o'rta osiyo faqihlari/ A. SH. Juzjoniy - „Toshkent islom universiteti” nashriyoti 2002

Marg'inoniy va uning izdoshlari/ A. SH. Juzjoniy -,Toshkent islom universiteti” nashriyoti 2002

„O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti 2004